



SIYOSIY INTERVYU SIYOSIY KOMMUNIKATSIYANING MUHIM SHAKLI SIFATIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Akbarova Shahzoda Alisher qizi

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Siyosatshunoslik yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Mustaqil taraqqiyot yillarida Konstitutsiyamiz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etish, O‘zbekistonning xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda” 1 . Ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va faol amaliyotga tadbir etilayotgan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” xalqimiz hayot darajasini yuksaltirishning aniq mexanizmlari belgilab berilganligi mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining yangi bosqichi sifatida e‘tirof etilmoqda.

Kalit so‘zlar: Siyosiy kommunikatsiya, siyosiy intervyu, siyosiy ong, Avesto , Qonun ustuvorligi.

Siyosat sohasidagi kommunikatsiya yoki siyosiy kommunikatsiya boshqa kommunikasion jarayonlar kabi uchta maqsadni ko‘zlashi mumkin: axborot almashinuvi, fikr almashishi, axborot xatti- harakat o‘zgarishi. Biroq ushbu jarayonda asosiysi, shubhasiz xatti harakat o‘zgarishi hisoblanadi, chunki aynan u jamiyatda hukumat boshqaruv munosabatlari tayanchini tashkil qiladi. O‘z navbatida, ular tomonidan uzatilayotgan axborot ustidan nazorat, axborot jamiyatida hokimiyatni ijro etish, ushlab turish, kerak paytda esa uni egallash zaruriy shartlardan biriga aylanadi. Bu hokimiyat va uni amalga oshirilishini “boshqaruvchi” va “boshqariluvchilar”



axboriy o‘zaro munosabatlarini nazarda tutadigan kommunikasion jarayon sifatida ko‘rib chiqishga asos beradi, aniqrog‘i – axborot almashinuvi, ular o‘rtasidagi teskari aloqa yoki boshqaruv samaradorligini ta‘minlash uchun “boshqaruvchilar” “boshqariluvchilar” haqidagi barcha zaruriy ma‘lumotlarni olishi shart va ushbu ma‘lumotlarga asoslanib, 1 Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi. 6.12.2016. shakllanayotgan holatga ko‘ra, qo‘yilgan maqsadga yo‘naltirilgan keyingi boshqaruv qarorlarini shakllantirishi kerak. Siyosiy kommunikatsiya haqidagi zamonaviy nazariy qarashlar ildizi uzoq tarixga ega. Kommunikatsiya siyosiy ta‘sir vositasi sifatida antik davrdan buyon tushunilganligi haqida bizgacha yetib kelgan qadimiy yunon va rim manbalari mavjud. Platon xayoliy davlat 5 haqidagi mulohazalarida ma‘rifiy maqsadlarda miflarni “qayta yozib olish” va xudolar odamlar oldida yaxshi ko‘rinishga ega bo‘lmagan joylarini olib tashlashni taklif qilib, gapirgan 2 . Arastu birinchi bo‘lib, oliy “umumiy farovonlik”ka erishishga yo‘naltirilgan “muloqot”ni tahlil qilib, siyosiy faoliyat kommunikasion aspektiga e‘tibor qaratdi 3 . G‘arbiy Yevropa O‘rta asrlari atoqli olimlari Avgustin Blajennyi va Foma Akvinskiy o‘zining diniy- falsafiy asarlarida xudo tomonidan o‘rnatilgan tabiat bilan shartlashadigan inson muloqotining turli shakllariga e‘tibor qaratadi. Uyg‘onish davrida insonlarning kayfiyati va xulq-atvori o‘zgarishiga yo‘naltirilgan siyosiy ongga ta‘siri N. Makiavelli ijodida taraqqiy topdi. Yangi asrda bosmachilik ishida tarqalish va rivojlanish darajasiga ko‘ra, erkin matbuot g‘oyasi atrofidagi fikrlar kurashi jarayonida bugungi kunda ham o‘z kuchini yo‘qotmagan kommunikatsiyaning siyosiy rolini tushunish va anglashga oid turli konseptual yondoshuvlar shakllandi. Shunday qilib, T. Gobbs 4 davlatni zaiflashtirib, uni tarqalib ketishiga sabab bo‘ladigan “isyonkor olimlar zahri”



bilan kurashish zaruriyatini asoslab beradi; ayni paytda qonunning kuchini adashayotganlarga emas, balki xatoliklarning o'ziga qarshi ishlatishga chaqiradi.

boshqalar qatorida ushbu masalaga qator rus olimlari R.F. Abdeyev, Ye.L. Vartanova, T.P. Voronina, G.L. Smolyan va D.S. Chereskin, Yu.V. Yakoves 7 ham o'z hissasini qo'shishgan. Ko'rib chiqilayotgan muammolarda ijtimoiy kommunikatsiya, ommaviy kommunikasion jarayonlar, mexanizmlar va ularning natijalarini insonlar ongiga ta'sirini tahlil qilish sohasidagi nazariy ishlar mavjud. So'nggi yillarda ushbu yo'nalish bo'yicha I.I. Zasurskiy, Ya.N. Zemlyanova, G.S. Melnik, Ye.P. Proxorov, A.V. Sokolov, V.P. Terin, L.N. Fedotova, F.I. Sharkov 8 kabi rus olimlarining ishlari bag'ishlangan. Siyosiy intervyuning siyosiy kommunikatsiyalarga ta'sirining alohida masalalari tahliliga bag'ishlangan maxsus ishlar zamonaviy o'zbek tadqiqotchilari amaliyotida unchalik ko'p emas. Siyosiy intervyu siyosiy kommunikatsiyaning asosiy janri sifatida olib borilgan tadqiqotlar P. Burdye, M. Veber, N. Smelzer, R. Lakoff va Ye.I. Goroshko, V.V. Voroshilov, T. D. Venediktova, A.V. Kirilina, A.N. Teplyashina, Ye.S. Dolgina, V.V. Potapov, Ye.A. Popova, I.G. Olshanskiy, I.I. Xaleyeva tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, S.A. Borisova, N.A. Kobzeva, A.V. Prokopenko, A.M. Chamina dissertatsiya ishlarida siyosiy intervyu muloqotning dialog turi sifatida ko'rsatilgan. Bugungacha siyosat sohasida axborot ta'siri va o'zaro ta'sirlashuv jarayonlarini anglash va bu borada intervyu janrining o'rni tadqiqotlarning nazariy metodologik ob'yekti sifatida o'rganilmagan. Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi siyosiy intervyu shakllarining genezisi va evolyusiyasining kommunikativ jarayonlarga ta'siri aniqlashda, siyosiy intervyuning mohiyati va pragmatik jihatlari ochib berilishida va ta'riflanishida ko'rinadi. Introduction. – London; Thousand Oaks, Calif.: Sage, 2003., Toffler E. Metamorfozy vlasti: Znaniye, bogatstvo i sila na poroge XXI v. – M.: AST, 2003.. 7 8 Abdeyev R.F. Filosofiya informatsionnoy sivilizatsii: Dialektika progressivnoy linii razvitiya kak gumannaya obshchelovecheskaya filosofiya dlya XXI v. – M.: Gumanitarnyy



izdatelskiy syentr “VLADOS”, 1994., Vartanova Ye. Finskaya model na rubeje stoletiy: Informasionnoye obshchestvo i SMI Finlyandii v yevropeyskoy perspektive. – M.: Izd-vo Moskovskogo universiteta, 1999., Voronina T.P. Informasionnoye obshchestvo: suщnost, cherty, problemy. – M.: SAGI, 1995., Smolyan G.L., Chereskin D.S. O formirovaniy informasionnogo obshchestva v Rossii // Informasionnoye obshchestvo. – 1998., Yakoves Yu.V. Formirovaniye postindustrialnoy paradigmy: istoki i perspektivy. // Voprosy filosofii. – 1997 8 Zasurskiy Ya.N. Jurnalistika i obshchestvo: balansiruya mejdu gosudarstvom, biznesom i obshchestvennoy sferoy. / Sredstva massovoy informasii postsovetskoy Rossii / Pod red. Ya.N. Zasurskogo. – M.: Aspekt press, 2002., Melnik G.S. Mass media: psixologicheskiye prosessy i effekty. – SPb.: Izd-vo SanktPeterburgskogo universiteta, 1996., Proxorov Ye.P. Jurnalistika i demokratiya. – M.: Aspekt Press, 2004., Sokolov A.V. Obshchaya teoriya sosialnoy kommunikatsii. – SPb.: Izdatelstvo Mixaylova V.A., 2002., Terin V.P. Massovaya kommunikatsiya: Issledovaniye opyta Zapada. – M.: MGIMO, 2000., Fedotova L.N. Sosiologiya massovoy kommunikatsii. – SPb.: Piter, 2003., Sharkov F.I. Osnovy teorii kommunikatsii. – M.: Sosialnyye otnosheniya, 2002.

Shu munosabat bilan tadqiqot maqsadi siyosat sub'yektlarini o'zaro va hokimiyatni egallash, saqlash, ishlatishga, jamiyatda boshqaruv munosabatlarning saqlanishi, mustahkamlanishi yoki o'zgarishiga qaratilgan ijtimoiy atrof-muhit bilan ta'sirlashuvining zaruriy tarkibiy qismi sifatida siyosiy intervyuning konsepsiya va modellarni tahlil qilish sanaladi. Bu maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalar belgilandi: - siyosiy kommunikasion jarayonlarni o'rganish metodologiyasi rivojlanishda asosiy tendensiyalarini tadqiq etish; - siyosiy sohada intervyu ta'siri jarayonlarini konseptual aks ettiruvchi kognitiv tuzilmalar sifatida tahlil qilish; - siyosiy faoliyat ma'lum tarixiy shakllari ijtimoiy siyosiy sohada qayta qurish jarayonlarida kommunikatsiya vositalarining rolini ochib berish; - siyosiy intervyu



fenomenini o'rganish, siyosiy kommunikatsiya doirasida uning ahamiyatini belgilash; - siyosiy intervyu shakllari evolyusiyasini zamonaviy siyosiy madaniyat kontekstida kuzatish; - madaniyatlararo muloqotning nutq strategiyalarini tanlashni aniqlash nuqtai nazaridan suhbat mavzusi (intervyu) va adresat (auditoriya) ning o'zaro munosabatini tahlil qilish. - siyosatchilar nutqining umumiy va individual xususiyatlarini aniqlash. - siyosiy intervyu omilining ta'sirchanlik xarakteri va darajasini aniqlashdan iborat. Har qanday davr siyosiy qarashlari dunyo, unda odamning o'rni, insonni atrofidagi voqelik va o'ziga o'zining munosabatlari haqidagi tasavvurlari, shuningdek, ushbu tasavvurlar bilan shartlashgan ong va faoliyat prinsiplari, e'tiqodlar va qadriyatlarga tayanib, o'zida dunyoviy boshlang'ich nuqtani saqlashi lozim. Ilgarigi dunyoviy ko'rsatmalar va ularning doirasida shakllanadigan, dunyo surati deb nomlanishi qabul qilingan, atrof voqeligi butun obrazidan kelib chiqib, hokimiyat va hukmronlik qilish, siyosiy munosabatlar, jamiyatdagi tizim, jarayon va institutlar, siyosiy faoliyat shart, imkoniyat va sabablari haqida bilimlar shakllanishi va rivojlanishi o'ziga xoslik va qonuniyatlari ishlab chiqariladi. Har bir siyosiy intervyu qiymati kontekstida nozil qilingan sivilizatsiyaviy, tarixiy va madaniy jabhalar bilan bog'liq bo'lgan vaziyat siyosiy kommunikatsiyaning xususiyatlarini namoyon qiladi. Dastavval adabiy va falsafiy janr shakli sifatida paydo bo'lgan, keyinchalik o'ziga xos madaniy, ritorik va uslubiy metodlarni asta-sekin rivojlantirgan siyosiy intervyu bugun siyosiy kommunikatsiya sohasida muhim o'rin tutadi. Afsonaviy tushunchada umumdunyoviy, fazoviy, ilohiy kelib chiqishga ega dunyoviy tartiblar ajralmas qismi sifatida ko'rinsa, siyosiy fikr namoyon bo'lishi o'z navbatida butun afsonaviy dunyoqarash elementlarini namoyish etardi. Ilohiy adolatni ko'klarga ko'tarish yerdagi ijtimoiy siyosiy munosabat, inson xulq atvori qonun qoidalari bizgacha yetib kelgan Qadimiy Misr manbalari: "Ptaxotep ta'limoti"(m.a. XXVIII asr), "Gerakleopol shohining o'g'liga ta'limoti"(m.a. XXI asr) va boshqalarga xos. Hukumat va qonunlar ilohiy tabiati haqida tasavvurlar, ularning o'zgarmas osmon old ko'rsatmalari va adolatiga muvofiqligi keyingi, m.a. XVIII asr siyosiy huquqiy fikr



qadimiy Bobil haykali “Xammurapi qonunlari”da aks etgan. Ushbu hujjat matnida o‘z mulozimlariga nisbatan kommunikator rovida chiqadigan Qadimiy Bobil shohi mohiyatan xudolar irodasi retranslyatori sifatida namoyon bo‘ladi: “Shamash, osmon va yer buyuk sudyasi xohishiga ko‘ra, mamlakatimda adolat qaror topsin! Marduk, mening hukmdorim buyrug‘iga ko‘ra, ko‘rsatmalarimdan hech kim bo‘yin tovlamasin”. Hukumat va hukmdorlarning o‘zi ilohiy kelib chiqishi haqidagi mifologik tasavvurlar nafaqat qadimiy matnlarida, balki tasviriy san‘at haykallarida ham o‘z aksini topgan. Keng tomoshabin auditoriyasiga yaqqol maqsadi bilan ochiq va ko‘rimli shaklda muayyan ma‘lumotlarni mustahkamlagan bu haykallar mohiyatan siyosiy kommunikatsiya vizual usullarini ishlatish eng erta shakllari hisoblanadi. Shunday qilib, qadimiy misr fir‘avnlari bilan ilohlari tasviri tarqalishi shubhasiz potensial tomoshabinlar ongida buyukligi va donoligi o‘z o‘zidan anglashilib, shubhaga yo‘l qo‘yilmaydigan yerdagi hukmdorning ilohiy kelib chiqishi haqidagi tasavvurlariga qaratilgan. Mafkuralar kurashi yo‘sinida siyosiy kommunikatsiya muammosi odamlar ongiga maqsadli ta’sir ko‘rsatish instrumental imkoniyatlari nuqtai nazaridan, tadqiqot manfaatlari kesishmasida qolib, nazariyotchilarning e’tiborini jalb qildi. Progressiv tendensiyalar ko‘p jihatdan gegel dialektikasi ta’siri ostida siyosiy munosabatlar murakkablashuvi hamda rasional takomillashuvi, siyosiy tizimlarning jamiyatni samarali boshqarish va tashkilotchilik darajasini o‘stirish imkonini beradigan keng va universal tabiatdagi axborot, funksiyalar va tuzilmalar ijtimoiy tarixiy jarayonda yig‘ilishi pozitsiyasidan tahlil etiladi. Postklassik ilmiy dunyo surati doirasida shakllantirilgan dunyoqarash ko‘rsatmalariga muayyan ta’sir siyosiy kommunikatsiya jarayon va hodisalar ilmiy tahlili ilk harakatlarida kuzatiladi. Kommunikatsiyaning mazkur tarixiy kontekstida ahamiyati dialog maqsadlariga bog‘liq bo‘lmagan va shuning uchun mohiyatan ikkilamchi sanalgan hokimiyat va jamiyat dialogi uchun siyosiy jarayonni bog‘laydigan chuqur texnik bo‘lib namoyon bo‘ladi. Keltirilgan tezis namoyishkorona illyustratsiyasi sifatida G. Lassuell asari ham keltiriladi, bu yerda urush olib borish sharoitlarida ommaviy targ‘ibot



samaradorligi muammolari ko‘rib chiqiladi va kommunikatsiya dialog ko‘rinishida emas, balki bir yo‘nalishli, mohiyatan faol harakatlanuvchi, “boshqaruvchi”, “boshqariladigan” auditoriyaga axboriy ta’sir ob’yekti rovida chiqadigan nofaol kommunikatorlar roliga o‘zaro zid qo‘yilishi va qat’iy mustahkamlanishini nazarda tutadigan oldindan berilgan natija bilan texnik texnologik sub’yekt ob’yekt jarayoni yetarlicha sodda tarzda tahlil qilinadi. Ma’lumki, axborotga bulgan xayotiy extiyoj, uni qondirishga xizmat kiluvchi omillarni shakllantirish kishilik taraqqiyotining har bir bosqichida yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelgan. Shu ma’noda, odamlar tomonidan tarqatilayotgan har bir axborot ular yashab turgan jamiyatning manfaati uchun xizmat kilgan, uning maksad va intilishlarini ifodalagan. Axborot to‘plash va tarqatishning dastlabki og‘zaki (voizlar, jarchilar, choparlar va boshkalar) va yozma (popiruslardagi, e’lon taxtalari va xakozolardagi) namunalari nomuntazam bo‘lsada, qadim zamonlardan yaxshi ma’lum. O’sha, qadim davrlardayoq to‘laqonli axborot va xabarga talab hamda ehtiyoj turli manbalarda o‘z aksini topgan. Zardushtiylik tarixining manbalarida aytilishicha, Zardusht xudoning paygomi (xabari)ni odamlarga yetkazish orkali bosqinchilik va vayronliklar oldini olish, halol mehnat kilib, tinch-totuv yashash, adolat va haqiqatga sajda kilish kerakligini o‘rgatgan. 30 asrlar oldin bitilib, bizlarga yetib kelgan “Avesto”dan har qanday xabar, yangilik o‘zining takomilligi, haqiqiyliqi, to‘liqligi bilan baholanishi, uning yordamida insoniyat yaxshilik va ezgulikka qarab intilishi to‘g‘risida xulosa kilish mumkin. Yana manbalarga murojaat qilsak, ommaviy axborotning asosiy ma’nosini anglatuvchi ma’lumot yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish hamda tezkor xabarlar yozib jamiyatni ogoh etish bilan mashg‘ul kishilar Amir Temur davrida ham bo‘lganligi ma’lum buladi. Bu haqda Sohibqiron «Qissai Temur»da: «Amr etdimkim, har sarhad va viloyat, lashkar va mamlakatga bir axbornavis (xabarlar yozuvchi, ya’ni muxbir) tayin etgaylarkim, sipoh va hokim va ra’iyat va begona lashkar va mol va manolning



mudoxil va maxorij va begona odamlar va karvonning kirmak va chikmogi va hamsoya podshohlar mamlakatining axbori va alarning a'moli va af'oli va uzoq baladalaridin dargohimga yuz quygon ulamo va fozil odamlarning ishlar va suzlarin rostlig va durustlig bila yozib dargohga yiborgaylar», deb yozgani fikrimiz dalilidir. Demak, bo'layotgan hodisa voqealar haqida xabar to'plash va davlatni boshkarishda ulardan foydalanish Amir Temur uchun muhim omil bulgan. Hazrat Alisher Navoiy ham o'z ijodi va faoliyati davomida xolis va rost axborot masalasiga alohida e'tibor karatgan. Uning "Hayratul abror" dostonidagi yolg'on xabar beruvchining ahvoli: Har kishi yolg'onni desa, lek kam Bulgay edi kosh bu davronda ham. Yoki "Farhod va Shirin" dostonida xabarning ijtimoiy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan mutafakkir ajdodimizning: Erursen shoh - agar ogohsen-sen, Agar ogohsen - sen, shohsen sen, degan misralari har kanday

Siyosiy intervyular jamoatchilik bilan aloqa shakllariga xos xususiyatlarni egallash, xususan, turli jamoatchilik muloqotining makonini tashkil etadi. Tadqiqotchilarning fikricha, intervyu janrida jiddiy o'zgarishlar yuzaga kelmoqda. An'anaviy intervyular shakli – suhbatlar "tavsiflovchi yoki hodisa turidagi mantiqiy sxemadan foydalangan holda va har xil chuqurlikdagi matn sifatida" 9 hozirda bir qator modifikatsiyalarga ega (interyu-dialog, intervyu-monolog, intervyu-xabar, intervyu-eskiz, intervyu-fikr, jamoaviy intervyu va anketa) 10. Ilgari tilshunoslar intervyuni faqat axborot janrlariga tegishli deb hisoblashgan bo'lsa, endilikda esa tahliliy turlar sirasiga ham kiritishgan. Masalan, A.A. Tertichnyy analitik intervyular va analitik so'rovlarni mustaqil shakllar sifatida ajratgan 11. Maxsus tashkil qilingan intervyular tipologizatsiyasi juda keng tarqalgan bo'lib, bular informasion, ekspert, muammoli suhbatlar, shuningdek, tanishish bo'yicha suhbatlardir 12. Siyosiy intervyu – bu yirik siyosiy arbob, hukumat rahbari yoki prezident tomonidan jurnalistga berilsa, rasmiy siyosiy hujjat rolini o'ynashi mumkin bo'lgan janr hisoblanadi 13. Siyosiy suhbatlarning o'ziga xos xususiyati uning kommunikativ maqsadining ko'p qatlamliligidadir.



A.K.Mixalskayaning ta'kidlashicha, siyosiy intervyu juda an'anaviy (ijtimoiy "shartli") ommaviy nutq janri bo'lib, unda to'g'ridan-to'g'ri ishtirokchilarning nutq orqali rollari qat'iy taqsimlanadi, bunda jurnalist siyosatchining muhim xususiyatlarini ochib beradi yoki ochishga harakat qiladi. Jamiyat, shu jumladan "xavfli" jamiyat, shu bilan birga jurnalist savollariga javob berar ekan, jamiyatni "dolzarbligi" ga ishontirishga intiladi 14 ya'ni, suhbatdoshlar adresatni 9 Maydanova L.M. Stilisticheskiye osobennosti gazetnykh janrov.–Sverdlovsk: Ur GU, 1987,52b. 10 Grabelnikov A.A. Rabota jurnalista v presse. –M.: RIP-xolding, 2004, 440 b. 11 Tertychnyy A.A. Janry periodicheskoy pechati. –M.: Aspekt Press, 2000, 320 b. 12 Shostak M.I. Jurnalist i yego proizvedeniya – M.: Gendalf, 1998, 96 b. 13 Mixalskaya A.K. Polevaya struktura politicheskogo diskursa; Metod analiza i opisaniya rechevogo povedeniya politika v politicheskom intervyu// Jurnalistika v 1999 godu. Ch.5.M., 2000, 28-70 b. 14 Mixalskaya A.K. Polevaya struktura politicheskogo diskursa; Metod analiza i opisaniya rechevogo povedeniya politika v politicheskom intervyu// Jurnalistika v 1999 godu. Ch.5.M., 2000, 68 b. ma'lumotni kerakli darajada taqdim etishdir. Ko'rinib turibdiki, ideal holda, muloqot kommunikativ ta'sir o'tkazish pozitsiyasidan kelib chiqishi kerak. Ushbu prinsipga amal qilgan ishtirokchilarning nutqiy xatti-xarakatlari aloqa jarayonini optimallashtirishga olib keladi va ularni "kooperativ", "sheriklik", "do'stona" yoki "neytral" deb belgilash mumkin. Ayniqsa, kommunikativ hamkorlik prinsipiga rioya qilmaydigan suhbatdoshlarning nutq xatti-harakatlari "nizo", "qarama-qashilik" deb talqin etiladi, bu esa suhbatdoshning og'zaki aloqaga kirish uslubining umumiy yo'nalishini ko'rsatadi. Siyosat doirasida intervyular ommaviy auditoriya uchun yanada ta'sirchan shakl, partiya yoki nomzodlar asosiy dastur qoidalarini namoyon qilish vositalaridan biridir. Siyosatchi obrazini shakllantirishda siyosiy intervyu eng samarali matn shakli hisoblanadi. Shu paytgacha siyosiy intervyular kommunikativ va siyosiy hodisa sifatida o'rganib kelindi, lekin uning madaniy tushunchasi ham muhim ahamiyatga kasb etadi. Hokimiyatni zabt etish va saqlab qolish vazifasi siyosiy kommunikatsiyada markaziy



o'rinni egallaydi. Ushbu vazifani siyosatchilar jamoatchilik ongini boshqarish, auditoriyaga ma'lum stereotiplarni o'rnatish, fikr va baholarni shakllantirish orqali hal qilinadi, deb hisoblaydilar. Intervyu – bu siyosiy kommunikatsiyaning eng tez uchraydigan voqea janrlaridan biridir. Siyosiy intervyu - bu yirik siyosiy arbob, hukumat rahbari yoki prezident tomonidan jurnalistga berilsa, rasmiy siyosiy hujjat rolini o'ynashi mumkin bo'lgan janr. Bunday rasmiy intervyularning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular individual fikrni emas, balki rasmiy hukumat, siyosiy partiya, harakat nuqtai nazarini aks ettiradi. Hokimiyatni zabt etish va saqlab qolish vazifasi siyosiy kommunikatsiyada markaziy o'rin tutadi. Ushbu vazifani siyosatchilar jamoatchilik ongini boshqarish, auditoriyaga ma'lum stereotiplarni o'rnatish, fikr va mulohazalarini shakllantirish orqali hal qilishadi. Siyosiy muloqotning tez-tez uchraydigan janrlaridan biri bu intervyudir. Shu kunga qadar intervyu janri jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirgan. Endilikda an'anaviy intervyular shakli - suhbatlar sifatida bir qator modifikatsiyalarga (intervyu-dialog, intervyu-monolog, intervyu-xabar, intervyu-eskiz, intervyu - fikr, jamoaviy intervyu va anketa)ega. Ilgari faqat axborot janrlariga tegishli bo'lgan intervyu endilikda tahliliy turlarga ham ajratilmoqda. Masalan, A.A. Tertichnyy tahliliy intervyu va tahliliy so'rovlarni mustaqil shakl sifatida ajratib ko'rsatgan. Intervyu tipologizatsiyasi bo'yicha-informasion, ekspert, muammoli, bo'lishi mumkin. Siyosiy intervyuning o'ziga xos xususiyati uning kommunikativ maqsadi ko'p qatlamliligi bilan bog'liq. A.K. Mixalskayaning ta'kidlashicha, siyosiy intervyu juda an'anaviy (ijtimoiy "shartli") ommaviy nutq janri bo'lib, unda to'g'ridan-to'g'ri ishtirokchilarning nutq rollari qat'iy taqsimlanadi. Bunda jurnalist siyosatchining muhim xususiyatlarini ochib beradi yoki ochishga intiladi. Siyosatchi jurnalistning savollariga javob berar ekan, jamiyatni siyosatning "dolzarbligi" ga ishontirishga intiladi. Ya'ni, suhbatdoshlar auditoriyani ishontirishga, undagi muayyan niyatlarni uyg'otishga va harakatlarni boshqarishga intilishadi. Intervyudagi eng tashabbuskor ishtirokchi suhbatdosh bo'lib, u savollarni rejalashtirishda suhbatning borishini belgilaydi. Suhbatdosh intervyu



beruvchiga to'liq bo'ysunishi va uning mantig'iga va suhbatning borishiga rioya qilishi yoki aksincha dialogni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Siyosiy intervyuning alohida xususiyati shundaki, suhbat davomida olingan ma'lumotlar nafaqat suhbatdoshlarning o'zi, balki tinglovchilarni xabardor qilish uchun ham mo'ljallangan. Tomoshabin ko'pincha dialogda bevosita ishtirok etmaydi, ammo bu uning suhbat ishtirokchisi sifatidagi ahamiyatini pasaytirmaydi. Shu bois, tomoshabinlarning ehtiyojlari, qiziqishlari, istaklari ham siyosatchi, ham intervyu oluvchi jurnalist tomonidan hisobga olinishi shart. Zero siyosiy intervyu ana shu asosga tayanib qurilishi lozim. Jurnalist uchun intervyu tinglovchilar tomonidan talab qilinadigan mavzuda bo'lishi muhim. Siyosatchi respondentning maqsadi ma'lumotni kerakli darajada taqdim eta olishdir. Ko'rinib turibdiki, ideal holda, muloqot kommunikativ ta'sir o'tkazish pozitsiyasidan kelib chiqishi kerak. Ushbu prinsipga amal qilgan ishtirokchilarning nutqiy xatti-harakatlari aloqa jarayonini optimallashtirishga olib keladi va ularning turlarini "kooperativ", "sherik", "do'stona" yoki "betaraf" deb ajratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. PREZIDENT ASARLARI

1.1 Sh. M. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent: «O'zbekiston», 2016. - 56 b.

1.2 Sh. M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : “O'zbekiston”, 2017. – 48 b. 1.2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.



II. MAXSUS ADABIYOTLAR

- 2.1. Aristotel. Politika. // Aristotel. Sochineniya: V 4 t. T.4. – М.: Мысль, 1983. S. 644.
- 2.2. Aristotel. Ritorika // Aristotel. Ritorika; Poetika. – М.: Labirint, 2000. S.148. 2.3. Bell D. Gryadushcheye postindustrialnoye obshchestvo: opyt sosialnogo prognozirovaniya. – М.: Academia, 1999. S.783.
- 2.4. Byukenen P. Dj. Smert Zapada. – М.: AST, 2003. S. 444.
- 2.5. Viner N. Aksionernoye obshchestvo “Bog i Golem”: Obsujdeniye nekotorykh problem, v kotorykh kibernetika stalkivayetsya s religiyey. // Viner N. Chelovek upravlyayushchiy. – SPb.: Piter, 2001. S. 262.
- 2.6. Viner N. Individualnyy i obshchestvennyy gomeostazis. // Obshchestvennyye nauki i sovremennost. – 1994. S. 130.
- 2.7. Viner N. Kibernetika, ili Upravleniye i svyaz v jivotnom i mashine. – М.: Nauka; Glavnaya redaktsiya izdaniy dlya zarubejnykh stran, 1983. S.344.
- 2.8. Viner N. Mashina umneye svojego sozdatelya // Viner N. Kibernetika ili upravleniye i svyaz v jivotnom i mashine. – М.: Nauka; Glavnaya redaktsiya izdaniy dlya zarubejnykh stran, 1983. S. 314.
- 2.9. Viner N. Moye otnosheniye k kibernetike. Yeye proshloye i budushcheye. – М.: Sovetskoye radio, 1969.
- 2.10. Viner N. Chelovecheskoye ispolzovaniye chelovecheskix sushchestv: kibernetika i obshchestvo. // Viner N. Chelovek upravlyayushchiy. – SPb.: Piter, 2001. S. 240. 102
- 2.11. Viner N. Ya – matematik. – Ijevsk: NIS “Regulyarnaya i хаoticheskaya dinamika”, 2001. S.336.



- 2.12. Gobbs T. Leviafan, ili Materiya, forma i vlast gosudarstva syerkovnogo i grajdanskogo. // Gobbs T. Sochineniya: V 2 t. – T.2. – M.: MЫCЛ, 1991. S. 590. 2.13. Grinberg T.E. Politicheskaya reklama: portret lidera. – M., 1995. S. 103. 2.14. Zemlyanova L.M. Sovremennaya amerikanskaya kommunikativistika: teoreticheskiye konsepsii, problemy, prognozy. – M.: Izd-vo Moskovskogo universiteta, 1995. S. 268.